

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ERGASHEVA NILUFAR MANSUROVNA

**SIRT TO‘LQINLARINING QOVUSHQOQ-ELASTIK YARIM
TEKISLIKDA TARQALISH XUSUSIYATLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro –2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Physical-Mathematical Sciences**

Ergasheva Nilufar Mansurovna

Sirt to‘lqinlarining qovushqoq- elastik yarim tekislikda tarqalish xususiyatlari.. 3

Эргашева Нилуфар Мансуровна

Особенности распространения поверхностных волн в вязкоупругой
полуплоскости..... 21

Ergasheva Nilufar Mansurovna

Characteristics of surface wave propagation in a viscoelastic half-plane..... 41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published papers..... 45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ERGASHEVA NILUFAR MANSUROVNA

**SIRT TO‘LQINLARINING QOVUSHQOQ-ELASTIK YARIM
TEKISLIKDA TARQALISH XUSUSIYATLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro –2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM656 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-saytida (www.bstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Mavlonov To'lqin Mavlanovich
texnika fanlar doktori, professor

Indiaminov Ravshan Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil 18 oktabr kuni soat 11⁰⁰ da Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel./faks: (+99865) 223-78-84. e-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida (№ 390 raqam bilan ro'yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil: (200117, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel./faks: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 02 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 14 avgustdagi № 6 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

B.S. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori (DSc)

[Handwritten signature]

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

[Handwritten signature]

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda temir yo‘l tizimlarida yuqori tezlikda harakatlanadigan transport vositalarining barqarorligi muhim muhandislik muammolaridan biri sifatida yetakchi o‘rinni egallamoqda. Dunyo miqyosida mikropolyar Kossera muhiti va gradiyent-elastik muhit kabi umumlashtirilgan muhit modellari ushbu sohada yetakchi o‘rinni egallab, to‘lqin jarayonlarini o‘rganish, zamonaviy metodikalar va algoritmlar ishlab chiqish hamda sonli natijalarni tahlil qilish orqali temir yo‘l infratuzilmasining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlovchi usullarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, Reley to‘lqinlari ultratovush diapazonida (taxminan 10^6 Hz chastotalarda) metall, shisha va plastmassa kabi materiallarning sirt va sirtga yaqin qatlamlaridagi nuqsonlarni aniqlashda keng qo‘llanilmoqda va sirt qatlaminin tarqalish tezligi, so‘nish darajasi, qoldiq kuchlanishlar hamda termik-mexanik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda gruntida hosil bo‘ladigan egilish va burilish to‘lqinlari bilan bog‘liq barqarorlik masalalari temir yo‘l konstruksiyalarining kvazistatik va dinamik seysmik to‘lqinlar ta‘sirida mustahkamligini ta‘minlash, kuchlanish-deformatsiya holatini kamaytirish va xavfsiz ekspluatatsiyasini kafolatlash uchun har yili 3 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag‘ sarflashni talab etib, shu yo‘nalishda qurilmalarning mustahkamligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olgan holda dinamik masalalarni yechish hamda konstruksiyalarni buzmasdan ularning to‘lqin tarqalish xususiyatlari orqali mustahkamligini baholashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida yer usti va yer osti inshootlari zilzilabardoshligi sohasida qo‘llaniladigan materiallarning, shu jumladan ko‘p qatlamli murakkab tarkibga va fizik xossalarga ega bo‘lgan muhitlarni mustahkamligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, konstruksiyalarni buzmasdan tekshirish va turli xil konstruksiyalar qoplamalarning buzilishini oldini oluvchi nazaryalar yaratish ham talab etiladi. Buning uchun deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasida klassik kontinuum modeli bilan bir qatorda qattiq jismlarda umumlashtirilgan kontinuum modellari keng qo‘llanishni talab etadi. Eng ko‘p qo‘llanishi talab etiladigan umumlashtirilgan (klassik bo‘lmagan) kontinualar orasida mikropolyar Kossera muhiti va gradiyent-elastik muhit ushbu sinfga tegishli. Bunday muhitlarda to‘lqin jarayonlarni o‘rganish metodikasi va algoritmini yaratish, sonli natijalar olish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4794-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 30-maydagi PF-144-son “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”² shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika» hamda XIV. «Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda jahonda simmetrik bo‘lmagan elastiklik nazariyasining (Kossera muhiti) rivojlanishi bilan quyidagi xorijiy davlat olimlari Денисова Г.Г., Новикова В.В., Новацкий В., Костер В.Т., Победре Б.Е., Матвеев В.П., Кулешу М.А., Бровко Г.А., Rajneesh Kumar, Jun Liu, Nistor I., Аэро Э.Л., Кувшинский Е.В., Миндлин Р.Д., Тирстен Г.Ф., Кунин И.А., Пальмов В.А., Лурье А.И., Suiker A.S. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan gruntli muhitda to‘lqin tarqalishi va muhitni kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini o‘rganish va baholash bo‘yicha Raxmatulin X.A., O‘rozboyev M.T., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Y.N., Mardonov B.M., Mirsaidov M.M., Sultonov K.S., Mirzayev I.K., Abdukadirov S., Xudoynazarov X., Yuldashov Sh.S., Safarov I.I. va boshqa olimlar ish olib borishgan. Ular muhit bilan aloqada bo‘lgan turli xil inshootlarda to‘lqin yuklanishi masalalarini hisoblash usullarini rivojlantirishga o‘zlarining hissalarini qo‘shishgan.

Hozirgi vaqtda muhitning qovushqoqlik xususiyatlarini hamda bir jinslimaslik xususiyatlarini hisobga olgan holda xos to‘lqinning gradient elastik va Kossera muhitida tarqalish xususiyatlarini, hamda dinamik jarayonlarni baholash uslublari to‘la ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining ilmiy-tadqiqot rejasi bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universitetida 2021 - 2026 yillarda bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F4-01 raqamli “Matematika va mexanikaning dolzarb muammolari ” mavzusidagi ilmiy ishlar rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sirt to‘lqinlarining (simmetrik bo‘lmagan) qovushqoq - elastik yarim tekislikda tarqalishi masalalarini yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish, analitik va sonli hisoblash usullarini takomillashtirishdan hamda sonli natijalar olish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sirt to‘lqinlarining qovushqoq - elastik yarim tekislik uchun dispersion tenglamalarini olish, sonli yechish asosida dispersiya xarakteristikalarini qurish;

ko‘chish va kuchlanishlar amplitudalarining geometrik parametrlarga bog‘liq

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 17- apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

o'zgarishiga baho berish;

gradiyent-elastik yarim fazo chegarasi bo'ylab harakatlanuvchi manba tomonidan hosil bo'ladigan dinamik jarayonlarga baho berish;

dissipativ bir jinsli bo'lmagan qovushqoq - elastik gradiyent-elastik yarim fazo va Kossera muhitidan iborat uzun to'lqin o'tkazgichlarda kompleks faza tezligining bir nechta moddasini to'lqin soniga nisbatan o'zgarishga solishtirma baho berish hamda olingan natijalar asosida to'lqinning so'nishini baholash;

ideal elastik muhitdan farqli qovushqoq-elastik gradiyent-elastik yarim fazo va Kossera muhitida paydo bo'ladigan yangi ko'ndalang to'lqinning faza tezligi va so'nishini solishtirma tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovushqoq-elastik yarim tekislik olingan.

Tadqiqotning predmetini garmonik to'lqinlar ta'sirida qovushqoq-elastik deformatsiyalanuvchan yarim tekislikda to'lqin tarqalishida materiallarning reologik xossalarni e'tiborga olgan holda kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati va dinamik xarakteristikalarini aniqlash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi va qurilish mexanikasi usullaridan, hisoblash matematikasi, matematik modellashtirish, dasturlash usullari, xususiyl hosilali differensial tenglamalarni yechish uchun "muzlatish", o'zgaruvchilarni ajratish, Gauss, Laplas va chekli ayirmalar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta harakatlanuvchi kuch ta'siridagi osesimmetrik bo'lmagan kuchlanishga ega bo'lgan yarim tekislikda hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash metodikasi va algoritmi Fur'ening integral almashtirilishlari, Romberg usuli, Gauss va Myuller usulariga asoslangan holda ishlab chiqilgan;

Kossera muhitida kuchlanishlar va ko'chishlar yarim tekislik sirtidan chuqurlik oshib borishi bilan eksponensial qonuniyat bo'yicha kamayib borishi va gradiyent elastik muhitga qaraganda 10-20% ko'p bo'lishi ishlab chiqilgan metodika va algoritim asosida topilgan;

yarim tekislik sirtida chegaradagi kuchlanishlar nol bo'lgan hol uchun mos keladigan dispersion munosabatlardan rezonans sohalar aniqlangan va chasstotalar mavhum qismlari kesishgan nuqtada energiya dissipatsiyasining intensiv bo'lish samarasi aniqlangan.

ishlab chiqilgan metodika va algoritim asosida olingan dispersion tenglama yechimidan ideal elastik muhitdan farqli qovushqoq-elastik, gradiyent-elastik yarim fazo va Kossera muhitida yangi ko'ndalang to'lqin topilgan. Yangi ko'ndalang to'lqinning faza tezligi va so'nishini xarakterlovchi parametrlar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

garmonik to'lqin ta'siridagi deformatsiyalanuvchan yarim tekislikda to'lqin tarqalish chastotasi va so'nish koeffitsientlariga solishtirma baho berilgan;

garmonik to'lqin ta'sirida yarim tekislikda to'lqin tarqalish chastotasi va so'nish koeffitsiyentlariga solishtirma baho berilgan;

bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar ta'siri ostida bo'lgan toshli muhitda klassik elastik muhitdan farqli yangi to'lqinning tarqalish tezligi va rezonans hosil qilish xususiyatlariga baho berildi.

Olingan natijalarning ishonchliligi chegaraviy shartlarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat'iyiligi, asoslangan yechish usullaridan tizimli foydalanilganligi, yechimlarning aniqliligi baholashda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga mos tushganligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati Kossera muhitida joylashgan uzun, qovushqoq–elastik, yupqa silindrik qobiqda to'lqin tarqalish nazariyasini rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyatini esa Gradiyent- qovushqoq elastik yarim fazo va Kossera muhitidan iborat bo'lgan to'lqin o'tkazgichlarda to'lqin tarqalishi va tebranishlar formasini qurishga mo'ljallangan amaliy dasturlar kompleksini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Sirt to'lqinlarini qovushqoq- elastik Kossera yarim tekislikda tarqalishini kompleks chastotaga bog'liq tadqiq qilish, seysmik to'lqinlarni tarqalishi va inshootlarga ta'sir qilishini, hamda hosil bo'ladigan kuchlanishlar va deformatsiyalarni optimallashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Tadqiqotdagi qovushqoq-elastik yarim tekislikda subsonik tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manba ta'sirida to'lqin tarqalishi natijasida yuzaga keladigan rezonans tebranishlarni so'ndirish metodikasi va algoritmi asosida:

silindrik qobiqda sirt to'lqini yuklanishi natijasida hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini topish metodikasidan hamda ularni tavsiflovchi dispersion munosabatlardan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016–2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 raqamli “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 2025-yil 21-maydagi 1/01-1822-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qovushqoq-elastik yarim tekislikda tovush tezligigacha (subsonik tezlik) bilan harakatlanuvchi nuqtaviy manbaadan to'lqin tarqalishi natijasida qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar dinamik yuklanishlar ta'sirida kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash imkonini bergan.

dissertatsiyada ishlab chiqilgan uzun qovushqoq-elastik to'ldiruvchili yupqa silindrik qobiqda to'lqin tarqalishi masalasini yechishga qaratilgan algoritmdan Rossiya Fundamental tadqiqotlar jamg'armasining davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida 2018–2020-yillarda bajarilgan РФФИ-18-48-240007 raqamli “Issiqlik elektrstansiyalari ishlab chiqarish-ekologik monitoringining axborot ishonchliligini oshirishning multiversion usuli” (“Мультиверсионный метод повышения информационной надежности производственно-экологического мониторинга тепловых электростанций”) nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Rossiya ilmiy va muhandislik jamoat birlashmalari ittifoqining Krasnoyarsk o'lkasi fan va texnika uyining 2025-yil 24-apreldagi 084-40-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish-ekologik monitoringning nazariy asoslarini yaratish va umumlashtirilgan sifat mezonini baholash uchun jarayonlarni matematik modellashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro ilmiy - amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to’rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sirt to’lqinlarining deformatsiyalanuvchi yarim tekislikda tarqalishini o’rganishga bag’ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat bo’lib, unda dispersiyaga uchramaydigan sirt to’lqinlarini va dispersiyaga uchraydigan to’lqinlarni o’rganishga bag’ishlangan adabiyotlar tahlili qilingan. Elastik muhitda to’lqin tarqalishi va to’lqin dispersiyasiga oid tushunchalar va ularni o’rganishga bag’ishlangan adabiyotlar tahlil qilindi. Yarim elastik tekislik va ikki muhit kontaktidagi (Stounli) to’lqinlar ham tahlil qilindi. Materiallarning qovushqoq -elastiklik xususiyatlarini hisobga olib, to’lqin tarqalishini ifodalovchi dispersion tenglamani olishga bag’ishlangan adabiyotlar tahlili ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq- elastik yarim tekislikda Reley to’lqinlarining tarqalishi masalalarining qo’yilishi, yechish metodikasi va algoritmi (neosesimmetrik kuchlanishlar tenzori va moment kuchlanishlarini hisobga olib)”** deb nomlangan ikkinchi bobida qovushqoq - elastik yarim tekislikda Reley to’lqinlarni tarqalishi (osesimmetrik bo’lmagan kuchlanishlar tenzori va moment kuchlanishlarini hisobga olib) masalalarining matematik qo’yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan.

Operator ko‘rinishdagi elastiklik moduli \tilde{E}_k uchun quyidagi integral munosabat o‘rinli:

$$\tilde{E}_k f(t) = E_{0k} \left[f(t) - \int_0^t R_{Ek}(t - \tau) f(\tau) d\tau \right], \quad (1)$$

bu yerda, $R_{Ek}(t - \tau)$ – relaksatsiya yadrosi; E_{0k} -oniy elastiklik moduli. (1) tenglamadagi integral had kichik hisoblanadi, shuning uchun $f(t)$ funksiya uchun $f(t) = \psi(t)e^{-i\omega_R t}$ munosabat o‘rinli bo‘ladi. Bu kichik chiziqli tebranishlarga mos keladi. Bu yerda $\psi(t)$ -vaqtni sekin o‘zgaruvchi funksiyasi, ω_R -haqiqiy kattalik. U holda (1) ni quyidagicha ifoda bilan taqriban almashtirish mumkin

$$\tilde{E}_k f = E_{0k} [1 - \Gamma_k^C(\omega_R) - i\Gamma_k^S(\omega_R)] f,$$

bunda

$$\Gamma^C(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau, \Gamma^S(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau$$

material relaksatsiya yadrosining mos ravishda, kosinus va sinus Furye tasvirlari.

Bu bobda qovushoq - elastik yarim tekislikda garmonik to'liqlarning tarqalishi o'rganiladi. Ko'pchilik hollarda harakatning xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishda olinadi:

$$(\tilde{\lambda}_k + 2\tilde{\mu}_k) \text{graddiv} \vec{u}_k - \tilde{\mu}_k \text{rotrot} \vec{u}_k = \rho_k \frac{\partial^2 \vec{u}_k}{\partial t^2}, \quad (k=1), \quad (2)$$

va u ba'zi murakkab bo'lmagan operatsiyalardan so'ng kompleks koeffitsiyentli birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini yechishga keltiriladi. Ba'zi murakkab hollarda tenglamalar sistemasining yechimlari chekli ayirmalar, orthogonal progonka, Myuller, Laplas, Gauss va maxsus funksiyalarga asoslangan metodika va algoritm bilan ham yechiladi. Qo'llangan algoritm asosida C^{++} dasturlash tilida dastur ishlab chiqilgan. Test masalalarni yechishda MAPLE-9.5 va MATLAB dasturiy ta'minotidan ham foydalanildi.

Muzlatish usulini qo'llash natijasida (2) integro-differensial tenglama kompleks koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamaga keladi:

$$(\bar{\lambda}_k + 2\bar{\mu}_k) \text{graddiv} \vec{u}_k - \bar{\mu}_k \text{rotrot} \vec{u}_k = \rho_k \frac{\partial^2 \vec{u}_k}{\partial t^2}. \quad (3)$$

Bunda

$$\begin{aligned} \bar{\lambda}_k f(t) &= \lambda_{k0} \left[1 - \Gamma_{k\lambda}^{(c)} - i\Gamma_{k\lambda}^{(s)} \right] f(t), \\ \bar{\mu}_k f(t) &= \mu_{k0} \left[1 - \Gamma_{k\mu}^{(c)} - i\Gamma_{k\mu}^{(s)} \right] f(t). \end{aligned} \quad (4)$$

Bu yerda

$$\begin{aligned} \Gamma_{\lambda k}^C(\omega_R) &= \int_0^\infty R_{\lambda k}(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau, \Gamma_{\lambda k}^S(\omega_R) = \int_0^\infty R_{\lambda k}(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau, \\ \Gamma_{\mu k}^C(\omega_R) &= \int_0^\infty R_{\mu k}(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau, \Gamma_{\mu k}^S(\omega_R) = \int_0^\infty R_{\mu k}(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau. \end{aligned}$$

-mos ravishda, material relaksatsiya yadrosining kosinus va sinus Furye tasvirlari.

Lame tenglamasi (3) gradiyent - elastik va izotrop muhit uchun quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\rho_k \ddot{\vec{u}}_k - (\bar{\lambda}_k + \bar{\mu}_k) \text{graddiv} \vec{u}_k - \bar{\mu}_k \Delta \vec{u}_k + 4\bar{\mu}_k L^2 \Delta (\Delta \vec{u}_k + \tilde{v} \text{graddiv} \vec{u}_k) = 0. \quad (5)$$

Faraz qilaylik, yarim tekislik sirtida nuqtaviy kuch D tezlik bilan harakatlansin. Uning tezligi bo'ylama va ko'ndalang to'liq tezliklaridan oshib ketmaydi. Bu holatda muhitda to'liq tarqalishini ifodalovchi tenglamalar quyidagicha bo'ladi

$$\begin{aligned} \frac{\partial \sigma_{x'x'}}{\partial x'} + \frac{\partial \sigma_{y'x'}}{\partial y'} &= \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}, \\ \frac{\partial \sigma_{x'y'}}{\partial x'} + \frac{\partial \sigma_{y'y'}}{\partial y'} &= \rho \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial t^2}, \end{aligned} \quad (6)$$

O'rganilayotgan masala uchun chegaraviy shart quyidagicha bo'ladi

$$\sigma_{y'y'} = -P\delta(x), \sigma_{y'x'} = 0, \mu_{y'} = 0.$$

Bo'ylama va ko'ndalang to'liq potensillari orqali ko'chishlar quyidagicha topiladi

$$u_{xk} = \frac{\partial \varphi_k}{\partial x'} - \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial y'}, \quad u_{yk} = \frac{\partial \varphi_k}{\partial y'} - \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial x'}, \quad (7)$$

Agar to'liqin tenglamalaridan foydalansak, ular quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} - \frac{1}{c_{p1}^2 \Gamma_{k\lambda\mu}} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \varphi = 0, \\ \left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} - l^2 \left(\frac{\partial^4}{\partial x'^4} + \frac{\partial^4}{\partial x'^4 \partial y'^4} + \frac{\partial^4}{\partial y'^4} \right) - \frac{1}{c_{s2}^2 \Gamma_{k\mu}} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \varphi = 0. \quad (8)$$

Harakatlanuvchi koordinatalar sistemasi (x, y) qo'zg'almas koordinatalar sistemasi bilan Galiley almashtiririlishi orqali bog'liq:

$$x = x' - Dt, \quad y = y' \quad (9)$$

U holda dinamik jarayonni ifodalovchi tenglamalar quyidagicha bo'ladi

$$\left(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2 \right) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \bar{\lambda} \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} + \bar{\mu} \left[\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial y^2} + l^2 \Delta \left(\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} - \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} \right) \right] = 0, \\ \left(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} \right) \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial y^2} + \bar{\lambda} \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \bar{\mu} \left[\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \left(1 - \frac{\rho D^2}{\bar{\mu}} \right) \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x^2} - l^2 \Delta \left(\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} \right) \right] = 0, \quad (10)$$

(10) tenglamaning yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$u = A e^{kqy} \sin(kx), \quad \vartheta = B e^{kqy} \cos(kx). \quad (11)$$

U holda (10) tenglama quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\left[-\bar{\mu} l^2 k^2 q^4 + \bar{\mu} q^2 (1 + l^2 k^2) - (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2) \right] A + \\ + \left[\bar{\mu} l^2 k^2 q^3 + q (\bar{\lambda} + \bar{\mu} - \bar{\mu} l^2 k^2) \right] B = 0, \\ \left[-\bar{\mu} l^2 k^2 q^3 - q (\bar{\lambda} + \bar{\mu} - \bar{\mu} l^2 k^2) \right] A + \\ + \left[q^2 (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2) - (\bar{\lambda} + \bar{\mu} l^2 k^2 - \rho D^2) \right] B = 0, \quad (12)$$

Bir jinsli (12) tenglamalar sistemasining notrivial yechimi mavjudlik shartidan quyidagi dispersion tenglamani olamiz:


$$(l^2 k^2 - \gamma + \beta_1^2) l^2 k^2 q^6 + (l^2 k^2 (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) + \gamma (1 + l^2 k^2) (1 - \gamma \beta_1^2) + \\ + 2l^2 k^2 (\gamma - l^2 k^2)) q^4 + ((1 + l^2 k^2) (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) - (\gamma - \beta_1^2)^2 + (\gamma - \\ l^2 k^2)^2) q^2 + (\gamma - \beta_1^2) (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) = 0. \quad (13)$$

Bunda $\beta_1^2 = \frac{\rho D^2}{\bar{\mu}}$, $\gamma = \frac{\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}}{\bar{\mu}}$. (13) transtsendent tenglamaning ildizlari cheksiz ko'p bo'ladi. U holda bo'ylama va ko'ndalang ko'chishlar quyidagicha bo'ladi:

$$u = \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^{\infty} A_i e^{kqiy} \sin k x dk, \quad \vartheta = \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^{\infty} \alpha_i A_i e^{kqiy} \cos k x dk.$$

Agar yarim tekislikda xos to'liqin tarqalsa, u holda to'liqin tarqalish tenglamasi quyidagi kompleks koeffitsiyentli oddiy differensial tenglamalar sistemasiga olib kelinadi

$$\left(2\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n \right) \text{graddiv} \vec{U}_n - \left(\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n \right) \text{rotrot} \vec{U}_n + 2\alpha_n \text{rot} \vec{\Omega}_n + \rho_n \omega^2 \vec{U}_n(z) = 0, \\ \left(\bar{\beta}_n + 2\bar{\gamma}_n \right) \text{graddiv} \vec{\Omega}_n - \left(\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n \right) \text{rotrot} \vec{\Omega}_n + 2\alpha_n \text{rot} \vec{U}_n - \\ - 4\bar{\alpha}_n \vec{\Theta}_n + j_n \omega^2 \vec{\Omega}_n = 0, \quad (14)$$



1 –rasm. Reley to‘lqinining tarqalishi

(14) tenglamalar sistemasining yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned}\vec{u}_n(x, z, t) &= \vec{U}_n\{U_x(z), U_y(z), U_z(z)\}e^{i(kx-\omega t)}, \\ \vec{\theta}_n(x, z, t) &= \vec{\Omega}_n\{W_x(z), W_y(z), W_z(z)\}e^{i(kx-\omega t)}.\end{aligned}\quad (15)$$

Agar (15) ni (14) ga qo‘ysak, quyidagicha oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{aligned}(\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n) \frac{d^2 U_x(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(\bar{\lambda}_n + 2\bar{\mu}_n)) U_x(z) + ik(-\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \frac{dU_z(z)}{dz} \\ - 2\bar{\alpha}_n \frac{dW_y(z)}{dz} = 0, \\ (\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n) \frac{d^2 U_z(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n)) U_z(z) + ik(-\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \frac{dU_z(z)}{dz} \\ - 2i\bar{\alpha}_n W_y(z) = 0 \\ (\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n) \frac{d^2 U_y(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(\bar{\alpha}_n + \bar{\mu}_n)) U_y(z) + 2\bar{\alpha}_n \frac{dW_x(z)}{dz} - 2ik\bar{\alpha}_n W_z(z) \\ = 0 \\ (\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) \frac{d^2 W_y(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) - 4\bar{\alpha}_n) W_y(z) + 2\bar{\alpha}_n \frac{dW_x(z)}{dz} \\ - 2ik\bar{\alpha}_n U_z(z) = 0 \\ (\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) \frac{d^2 W_y(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(2\bar{\beta}_n + \bar{\gamma}_n) - 4\bar{\alpha}_n) - W_x(z) + ik(2\bar{\beta}_n - \\ \bar{\varepsilon}_n) \frac{dW_z(z)}{dz} - 2\bar{\alpha}_n \frac{dU_z(z)}{dz} = 0 \\ (\bar{\gamma}_n + 2\bar{\beta}_n) \frac{d^2 W_y(z)}{dz^2} + (\rho_n \omega^2 - k^2(\bar{\varepsilon}_n + \bar{\gamma}_n) - 4\bar{\alpha}_n) - W_x(z) + ik(2\bar{\beta}_n - \\ \bar{\varepsilon}_n) \frac{dW_z(z)}{dz} - 2ik\bar{\alpha}_n U_y(z) = 0\end{aligned}\quad (16)$$

(16) tenglamalar sistemasini yechish uchun quyidagicha yangi o‘zgaruvchilar kiritamiz:

$$\begin{aligned}U_x(z) &= ik\Phi_1(z) - \frac{d\Psi_1(z)}{dz}, \\ W_x(z) &= ik\Phi_2(z) - \frac{d\Psi_2(z)}{dz}, \\ U_y(z) &= \Omega_2(z), \\ W_y(z) &= \Omega_1(z), \\ U_z(z) &= ik\Psi_1(z) + \frac{d\Phi_1(z)}{dz}, \\ W_z(z) &= ik\Psi_2(z) + \frac{d\Phi_2(z)}{dz}\end{aligned}\quad (17)$$

(17) ni (16) ga qo‘ysak, quyidagicha kompleks koeffitsiyentli ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{aligned}
& \frac{d^2\Phi_1(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_1^2} - k^2\right)\Phi_1(z) = 0, \\
& \frac{d^2\Psi_1(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_3^2} - k^2\right)\Psi_1(z) + \frac{2}{B}\Omega_1(z) = 0, \\
& \frac{d^2\Omega_1(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_4^2} - k^2 - \frac{4A^2B}{B-1}\right)\Omega_1(z) - \\
& - \frac{2A^2B}{B-1} \frac{d^2\Psi_1(z)}{dz^2} + \frac{2k^2A^2B}{B-1}\Psi_1(z) = 0, \\
& \frac{d^2\Phi_2(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_5^2} - k^2 - \frac{4A^2BC_4^2}{(B-1)C_5^2}\right)\Phi_2(z) = 0, \\
& \frac{d^2\Psi_2(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_4^2} - k^2 - \frac{4A^2B}{B-1}\right)\Psi_2(z) + \frac{2A^2B}{B-1}\Omega_2(z) = 0, \\
& \frac{d^2\Omega_2(z)}{dz^2} + \left(\frac{\omega^2}{C_3^2} - k^2\right)\Omega_2 - \frac{2}{B} \frac{d^2\Psi_2(z)}{dz^2} + \frac{2k^2}{B}\Psi_2(z) = 0.
\end{aligned} \tag{18}$$

(18) oddiy differensial tenglamalar sistemasining yechimini quyidagicha izlaymiz:;

$$\begin{aligned}
\Phi_1(z) &= E_0 e^{-\eta_0 z}, \\
\Psi_1(z) &= E_1 e^{-\eta_1 z} + E_2 e^{-\eta_2 z}, \\
\Omega_1(z) &= \frac{B}{2} \left\{ E_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_1 z} + E_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_2 z} \right\},
\end{aligned} \tag{19}$$

xuddi shunday, ikkinchi guruh yechimlarni ham topish mumkin

$$\begin{aligned}
\Phi_2(z) &= D_0 e^{-\xi_0 z}, \Psi_2(z) = D_1 e^{-\xi_1 z} + D_2 e^{-\xi_2 z}, \\
\Omega_2(z) &= \frac{B-1}{2A^2B} \left\{ D_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2B}{B-1} \right) e^{-\xi_1 z} + D_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2B}{B-1} \right) e^{-\xi_2 z} \right\}.
\end{aligned} \tag{20}$$

Bunda

$$\begin{aligned}
A &= X_0 \sqrt{\frac{\bar{\mu}}{B(\bar{\gamma} + \bar{\varepsilon})}}, B = \frac{\bar{\alpha} + \bar{\mu}}{\bar{\alpha}}, C = \frac{\bar{\gamma} - \bar{\varepsilon}}{\bar{\gamma} + \bar{\varepsilon}}, \\
C_1^2 &= \frac{\lambda_0 + 2\mu_0}{\rho X_0^2 \omega_0^2}, C_2^2 = \frac{\mu_0}{\rho X_0^2 \omega_0^2}, C_3^2 = \frac{B}{B-1} C_2^2, \\
C_4^2 &= \frac{\gamma_0 + \varepsilon_0}{j X_0^2 \omega_0^2}, C_5^2 = \frac{\gamma_0 + 2\beta_0}{j X_0^2 \omega_0^2},
\end{aligned}$$

bu yerda C_1 va C_2 – bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin tarqalish tushunchasi bilan bir xil olinadi, C_4 va C_5 – Kossera parametrlari deb yuritiladi, C_3 – yozuvlarni qisqartirish uchun kiritilgan. Yuqorida keltirilganlardan foydalanib $U_n(z), W_n(z)$ – yechimlarni ham yozishimiz mumkin bo‘ladi:

$$\begin{aligned}
U_x(z) &= ikE_0 e^{-\eta_0 z} + E_1 \eta_1 e^{-\eta_1 z} + E_2 \eta_2 e^{-\eta_2 z}, \\
U_y(z) &= \frac{B-1}{2A^2B} \left\{ D_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2B}{B-1} \right) e^{-\xi_1 z} + D_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2B}{B-1} \right) e^{-\xi_2 z} \right\}, \\
U_z(z) &= \eta_0 E_0 e^{-\eta_0 z} + irE_1 e^{-\eta_1 z} + ikE_2 e^{-\eta_2 z}, \\
W_x(z) &= ikD_0 e^{-\xi_0 z} + D_1 \xi_1 e^{-\xi_1 z} + D_2 \xi_2 e^{-\xi_2 z},
\end{aligned} \tag{21}$$

$$W_y(z) = \frac{B}{2} \left\{ E_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_1 z} + E_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_2 z} \right\},$$

$$W_z(z) = ikD_0 e^{-\xi_0 z} + ikD_1 e^{-\xi_1 z} + ikD_2 e^{-\xi_2 z},$$

bunda

$$\eta_0 = \sqrt{k^2 - \frac{\omega^2}{C_1^2}}, \xi_0 = \sqrt{k^2 + \frac{4A^2 B C_4^2}{(B-1)C_5^2} - \frac{\omega^2}{C_5^2}},$$

$$\eta_1 = \xi_1 = \sqrt{k^2 - x_1}, \eta_2 = \xi_2 = \sqrt{k^2 - x_2},$$

$$x_{1,2} = \frac{C_3^2 + C_4^2}{2C_3^2 C_4^2} \omega^2 - 2A^2 \pm \sqrt{\frac{(C_3^2 - C_4^2)^2}{4C_3^4 C_4^4} \omega^4 - \frac{2A^2(C_2^2 C_3^2 - 2C_3^2 C_4^2 + C_2^2 C_4^2)}{C_2^2 C_3^2 C_4^2} \omega^2 + 4A^4}.$$

Kossera muhiti uchun quyidagi hajmiy to‘lqin tarqalish tezliklari ma’lum:

$$c_l^2 = (\lambda + 2\mu)/\rho; c_{lr}^2 = (\beta + 2\gamma)/\rho I; c_s^2 = \mu/\rho;$$

$$c_{s\alpha}^2 = (\mu + \alpha)/\rho; c_{sr}^2 = (\gamma + \varepsilon)/\rho I.$$

Olingan yechim asosida Kossera muhitida erkin to‘lqin tarqalishi yoki majburiy (statsionar yoki garmonik, noturg‘in) to‘lqin tarqalishi masalalari yechiladi

$$\det_1 [D_{p1}(\omega, k)] = 0, \det_2 [D_{p2}(\omega, k)] = 0. \quad (22)$$

Dispersion tenglama (22) analitik ko‘rinishda olinadi. Muhit qovushqoq- elastik bo‘lganligi uchun dispersion tenglamadagi noma’lumlar kompleks kattalik bo‘ladi. Kompleks parametrli transsendent tenglama (22) Myuller va Laplas usullari asosida sonli yechiladi. Xos sonlarni hisoblashning absolyut xatoligi $18 \cdot 10^{-11}$ (xos son tenglamaga qo‘yilgandan keyingi natija) ga teng.

Dissertatsiyaning “**Qovushqoq- elastik yarim tekislikda Reley to‘lqinining tarqalishi (osesimmetirik bo‘lmagan kuchlanishlar tenzori)**” deb nomlangan uchinchi bobida qovushqoq - elastik yarim tekislikda Reley to‘lqini tarqalishida ikkinchi bobda qo‘yilgan masalani yechish va sonli natijalar olib, tahlil qilingan. Agar (18) transendent tenglamada

$$\zeta = c_R^2 = \frac{\omega^2}{k^2 c_2^2}, \alpha = L^2 k^2, \beta = \frac{1 - 2\nu}{2 - 2\nu},$$


bu yerda c_R – sirt to‘lqini tezligi, natijada quyidagi ko‘rinishdagi dispersion tenglamani olamiz:

$$16(1 - \beta\zeta)(1 + \alpha - \zeta) \left[1 + 2\alpha + 2\sqrt{\alpha(1 + \alpha - \zeta)} \right] =$$


$$= (2 - \zeta)^2 \left[\begin{array}{l} (1 - 3\alpha^2)^2 + \alpha(3 - \alpha)(1 + \alpha - \zeta) + (1 - \alpha^2)(1 + \alpha - \zeta)^2 + \\ + \alpha(1 + \alpha - \zeta)^3 + 2(1 - 3\alpha^2)(3 - \alpha)\sqrt{\alpha(1 + \alpha - \zeta)} + \\ + 2(1 - 3\alpha^2)(1 - \alpha)(1 + \alpha - \zeta) - 2(1 - 3\alpha^2)(1 + \alpha - \zeta) \cdot \\ \cdot \sqrt{\alpha(1 + \alpha - \zeta)} + 2(3 - \alpha)(1 - \alpha)(1 + \alpha - \zeta)\sqrt{\alpha(1 + \alpha - \zeta)} - \\ - 2(3 - \alpha)(1 + \alpha - \zeta)^2 \alpha - 2(1 - \alpha)(1 + \alpha - \zeta)^2 \sqrt{\alpha(1 + \alpha - \zeta)} \end{array} \right]. \quad (23)$$

Agar $L=0$ yoki $\alpha = 0$ bo‘lsa, u holda (19) transendent tenglama klassik muhitdagi Reley to‘lqini tenglamasiga keladi

$$16(1 - \beta\zeta)(1 - \zeta) = (2 - \zeta)^2 (3 + (1 - \zeta)^2 - 2\zeta). \quad (24)$$



2-rasm. Sirt to‘lqini tezligi haqiqiy qismining to‘lqin soniga bogliq o‘zgarishi:
1,4-sirt to‘lqini tezligi; 2,3 – siljish to‘lqini faza tezligi
 $\nu = 0.25$ va $\nu = 0.45$



3-rasm. Sirt to‘lqini faza tezligining to‘lqin soniga bogliq o‘zgarishi :
1,2 – siljish to‘lqini faza tezligi; 3-sirt to‘lqini faza tezligi; $\nu = 0.45$

Natijalar o‘lchamsiz parametrlar uchun olingan. Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, $\alpha \rightarrow \infty, \zeta \rightarrow 2, c_R \rightarrow \sqrt{2}$ bo‘ladi. Olingan natijalardan kelib chiqadiki, sirt to‘lqini tezligi siljish to‘lqini tezligidan oshib ketmas ekan. Olingan sonli natijalar 2-3-rasmlarda keltirilgan.

Kossera muhiti tenglamasi quyidagi ko‘rinishda olingan:

$$\rho \frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2} - (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \text{graddiv} \vec{u} + (\bar{\mu} + \bar{\alpha}) \text{rotrot} \vec{u} - 2\bar{\alpha} \text{rot} \vec{\theta} = 0,$$

$$I \frac{\partial^2 \vec{\theta}}{\partial t^2} - (\bar{\beta} + 2\bar{\gamma}) \text{graddiv} \vec{\theta} + (\bar{\gamma} + \bar{\varepsilon}) \text{rotrot} \vec{\theta} - 2\bar{\alpha} \text{rot} \vec{u} + 4\bar{\alpha} \vec{\theta} = 0. \quad (25)$$

Bu yerda \vec{u} - ko‘chish vektori, $\vec{\theta}$ - buralish vektori, ρ - material zichligi, I -inersiya momenti yoki materialning inersiya xususiyatini ifodalovchi parametr, $\bar{\lambda}, \bar{\mu}$ –Lame doimiylari, $\bar{\alpha}, \bar{\beta}, \bar{\gamma}, \bar{\varepsilon}$ –yangi elastik parametrlar bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\alpha \geq 0, \gamma + \varepsilon \geq 0, 3\beta + 2\gamma \geq 0, -(\gamma + \varepsilon) \leq \gamma - \varepsilon \leq (\gamma + \varepsilon).$$

Sirt to‘lqinlarining asosiy xossalardan biri uning ko‘chish amplitudasining chuqurlikka bog‘liq o‘zgarishi hisoblanadi. Sirt to‘lqinlarini o‘rganishda barcha ko‘chish va buralish amplitudalari $U_n(z), W_n(z), n = x, y, z$ noldan farqli bo‘ladi:

$$U_x(x, z, t) = \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ E_1 i k e^{-\eta_1 z} + E_2 \eta_2 e^{-\eta_2 z} + E_3 \eta_3 e^{-\eta_3 z} + \right. \\ \left. + D_1 \eta_1 e^{-\eta_1 z} - D_2 \eta_2 e^{-\eta_2 z} - D_3 \eta_3 e^{-\eta_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega,$$

$$U_z(x, z, t) = \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ -E_1 i k e^{-\eta_1 z} + E_2 i k e^{-\eta_2 z} + E_3 i k e^{-\eta_3 z} + \right. \\ \left. + D_1 \eta_1 e^{-\eta_1 z} + D_2 i k e^{-\eta_2 z} + D_3 i k e^{-\eta_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega,$$

$$W_y(x, z, t) = \frac{B}{2} \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ E_2 \left(A_m - \frac{\omega^2}{c_1^2} \right) e^{-\eta_2 z} + E_3 \left(A_p - \frac{\omega^2}{c_1^2} \right) e^{-\eta_3 z} + \right. \\ \left. + D_2 \left(A_m - \frac{\omega^2}{c_1^2} \right) e^{-\eta_2 z} + -D_3 \left(A_p - \frac{\omega^2}{c_1^2} \right) e^{-\eta_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega,$$

$$\begin{aligned}
U_y(x, z, t) &= \frac{F}{2} \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ E_2 \left(A_m - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4}{F} \right) e^{-\xi_2 z} + E_3 \left(A_p - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4}{F} \right) e^{-\xi_3 z} + \right. \\
&\quad \left. + D_2 \left(A_m - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4}{F} \right) e^{-\xi_2 z} + D_3 \left(A_p - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4}{F} \right) e^{-\xi_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega, \\
W_x(x, z, t) &= \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ E_1 i k e^{-\xi_1 z} + E_2 \xi_2 e^{-\xi_2 z} + E_3 \xi_3 e^{-\xi_3 z} + \right. \\
&\quad \left. + D_1 i k e^{\xi_1 z} - D_2 \xi_2 e^{\xi_2 z} - D_3 \xi_3 e^{\xi_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega \\
W_z(x, z, t) &= \int_{-\infty}^{\infty} \left\{ -E_1 \xi_1 e^{-\xi_1 z} + E_2 i k e^{-\xi_2 z} + E_3 i k e^{-\xi_3 z} + \right. \\
&\quad \left. + D_1 \xi_2 e^{\xi_1 z} + D_2 i k e^{\xi_2 z} + D_3 i k e^{\xi_3 z} \right\} e^{i(kx + \omega t)} S_0(\omega) d\omega. \quad (26)
\end{aligned}$$

Bu yerda D_j va E_j ($j = 1, 2, 3$) chegaraviy shartlardan topiladi;

